

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



TASDIQLAYMAN
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
30-iyun 2025-yil

TILSHUNOSLIK NAZARIYASI
O‘QUV FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish

Fan/modul kodi TN105		O‘quv yili	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 3	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Tilshunoslik asoslari	30	60	90	
2.	I. Fanning mazmuni				
	Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarni tilshunoslikning nazariy masalalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, tilning ijtimoiy taraqqiyoti, til va jamiyat, til va tafakkur munosabati, til sathlari, dunyo tillari tavsifi, tasnifi, tilshunoslik maktablari, lingvistik tahlil metodlari va til strukturasi haqida ma’lumot berish hamda o‘zbek tilshunosligi fanlarini o‘rganish uchun poydevor yaratishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, tilshunoslikning nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.				
	Fanni o‘qitishning vazifasi – talabalarga tilshunoslik nazariyasi va amaliyotiga oid bilim berish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilishga o‘rgatish va pirovardida ularni tilshunoslik asoslari, umumiy tilshunoslik va o‘zbek tilshunosligi sohalari bilan munosabatlarini bilish, ularga xos hodisalarning modellarini tuzish, tekshirish va tushuntira olishga o‘rgatishdir.				
	Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Tilshunoslik asoslari fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Massachusetts texnologiya instituti (AQSH)ning Til va uning tuzilishi: fonologiya; semantika va pragmatika fanlarining o‘quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo‘yicha 1-o‘rinni egallagan bo‘lib, tilshunoslik sohasi bo‘yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi – Lingvistics kursida umumiy tilshunoslik nazariyasi bilan bir qatorda, zamonaviy tilshunoslik maktablari va ularning erishgan yutuqlarining amaliy ahamiyati ham keng yoritiladi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur jahon tilshunosligining umumiy yutuqlari, ayniqsa, fonetik, fonologik, morfologik o‘xshashliklarning o‘ziga xos xususiyatlari asosida boyitilgan. Tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish – talabalar umumiy tilshunoslik nazariyalarini mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda ilmiy xulosa chiqarishni o‘rganadilar.				

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1- “Tilshunoslik nazariyasi” fanining maqsad va vazifalari.

“Tilshunoslik nazariyasi” fanining maqsad va vazifalari. Uning tilshunoslik fanlari uchun ochiqch vazifasini bajarishi. Tilshunoslikning boshqa fanlar sirasidagi o'ri. Ilmiy bilish bosqichlari va tilshunoslikning turlari. An'anaviy va zamonaviy yo'nalishlari.

2-mavzu. Tillarning paydo bo'lishi va taraqqiyoti. Dunyo tillari tasnifi

Tilning paydo bo'lishi haqida diniy va dunyoviy farazlar hamda ta'limotlar. Tillarning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi. Sinxroniya va diaxroniya. Dunyo tillari va ularning tasnifi. Dunyo tillarining genetik tasnifi. Til oilalari va guruhlari. Tillarning morfologik tasnifi. Dunyo tillarining hozirgi holati. Tilning tarkibi. Tilni o'zlashtirish. Lison va nutq. Lisoniy va nutqiy birliklar. “Lison-meyor-nutq” uchligi. Til sathlari va tilshunoslik bo'limlari. Tilning yaxlit sistema ekanligi. Ona tilini egallash jarayoni, ikkinchi tilni o'rganish. Lisoniy munosabat va lisoniy ziddiyat. “Munosabat” tushunchasi va uning tildagi modifikatsiyasi. Assotsiativ, sintagmatik va iyerarxik munosabat. Qarama-qarshiliklar birligi qonuni va lisoniy ziddiyat. Privativ (noto'liq), mutanosib (proporsional), darajali (gradual) ziddiyatlar. Lisoniy ziddiyatlarning nutqda so'nishi.

3-mavzu: Yozuvning shakllanishi va taraqqiyoti.

Yozuv – madaniy taraqqiyot mahsuli. Yozuvning shakllanishi va rivojlanishi. Yozuv va savodxonlik muammolari. Yozma nutqni takomillashtirishning psixolingvistik asoslari.

4-mavzu: Tilning fonetik-fonologik sathi.

Fonetika turlari va aspektlari. Fonema belgilari va nazariyalari. 8-mavzu: Fonetik o'zgarishlar. Fonetik o'zgarishlar: akkomodatsiya, assimilatsiya, metateza va boshqa fonetik hodisalar.

5-mavzu: Tilning lug'at sathi. Leksikologiya haqida tushuncha. Diaxron va sinxron leksikologiya. Leksikologiyaning boshqa bo'limlar bilan aloqasi. Tilning lug'at tarkibi. So'z va tushuncha. Leksikologiya sohalari. Semasiologiya, onomasiologiya, frazeologiya, etimologiya, leksikografiya, terminologiya va boshqalar.

6-mavzu: Tilning grammatik sathi. Grammatik ma'no ifodalovchi vositalar. Grammatik ma'no, grammatik shakl va grammatik kategoriya. Transformatsiya. Morfologiya. So'z turkumlari.

7-mavzu: Sintaksis. Sintaksis qismlari So'z birikmasi. So'z birikmasining qo'shma so'z va gapdan farqi. So'z birikmasining turlari: otli birikma, fe'lli birikma, sifatli birikma, ravishli birikma. Gap haqida ma'lumot. Matn tilshunosligi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Tilshunoslik nazariyasi

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Til – ijtimoiy hodisa.
2. Tilning paydo bo'lishi haqida nazariyalar. Dunyo tillari va ularning tasnifi. Til va nutq
3. Yozuv va uning ko'rinishlari.
4. Til sathlari. Fonetik-fonologik sath. Fonetik hodisalar.
5. Tilning lug'at sathi.
6. Tilning grammatik sathi. Grammatik ma'no ifodalovchi vositalar. Morfologiya. So'z turkumlari
7. Sintaksis. Sintaksis qismlari So'z birikmasi.Gap haqida ma'lumot. Matn tilshunosligi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ishni tayyorlashda fan xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish.

Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlar

1. Tilning paydo bo'lishi va taraqqiyoti.
2. Til va tafakkur.
3. Fonetika.
4. Grammatik ma'no.
5. Sintaksis.
6. Tilbirliklari.
7. Lisoniy munosabat va uning turlari.
8. Unli fonemalar paradigmasi.
9. Undosh fonemalar paradigmasi.
10. Leksema sememasining tarkibi.
11. Ana'aviy va struktur tilshunoslik munosabatlari masalasi.
12. Sintagmatik munosabat.
13. Assotsiativ munosabat.
14. Zidlanish sistemasiga ko'ra zidlanish turlari.
15. Boduen de Kurtenening falsafiy qarashlari.
16. "Tilshunoslik asoslari" fani predmeti, vazifalari.
17. Tillarning shakllanishi va taraqqiy qilishi.

	18.Tilning ijtimoiy tabiati. 19.Til va jamiyat. Sotsiolingvistika. 20.Til va nutq. 21.Yozuv. 22.Leksikologiya. 23.Leksik ma’noning kengayishi va torayishi. 24.Grammatik kategoriyalar. 25.Tilning tipologik tasnifi. 26.Bilish, ilmiy bilish bosqichlari. 27.Til, lison va nutq munosabati. 28.Lisoniy paradigma. 29.Lisoniy tasnif. 30.Lisoniy ziddiyat.
3.	V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: •“Tilshunoslik nazariyasi”ning fan sifatidagi o‘rni, uning boshqa tilshunoslik fanlari nazariyasi va uning asosiy tushunchalarini umumlashtirish, til hodisalarining jahon tilshunosligi va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish holati to‘g‘risida tasavvur va bilimga ega bo‘lishi; • tilshunoslikning boshqa sohalarini mustaqil o‘rganish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi; • Tilning ijtimoiy va ramziy hodisaligini tushuntira bilish, tillarning tasnifiy o‘rnini aniqlash, lison va nutqni farqlash, lisoniy munosabat va ziddiyatlarni farqlash malakalariga ega bo‘lishi kerak.
4.	VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari: • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.
6.	1-modul. Tilshunoslik asoslari Asosiy adabiyotlar:

	1. B.Mengliyev, Sh.Hamroyiva, G.Toyirova. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2025 2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009. 3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2013. 4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H.Dadaboyev. – Toshkent, 2004 5. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics. – Budapest, 2006. Qo‘shimcha adabiyotlar: 1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони (“Халқ сўзи”, 2017 йил, 8 февраль). 2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” (“Халқ сўзи”, 2017 йил, 21 апрель) 3. Абдуазизов А., Шереметьева А. Общее языкознание. – Тошкент, 2004. 4. Rahimova M. So‘zning belgilik muammolari. – Toshkent, 2023 5. Bushuy A.M., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent, 2007. 6. Yo‘ldoshev I. va b. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, 2013. 7. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. – Andijon, 2006. 8. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007. Axborot manbalari: www. literature.uz www. genhis philol.ru. http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism. http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html. https://ocw.mit.edu/courses/24-900-introduction-to-linguistics-spring-2022/ https://ocw.mit.edu/courses/9-57j-language-acquisition-fall-2001/ https://ocw.mit.edu/courses/24-903-language-and-its-structure-iii-semantics-and-pragmatics-spring-2005/
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan uchun mas’ul: Rahimova M.O. – o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

9.	Taqrizchilar: Madrahimov I. – o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent; Hasanov A. – o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
----	--